



UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA TEXNOLOGIYA FANI HAFTALIGINI TASHKIL ETISH VA O'TKAZISH

Hasanova Vasila Ergashovna

*Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 186-
umumiy o'rta ta'lim maktabining Texnologiya fani
o'qituvchisi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada umumta'lim maktablarida texnologiya fani tashkil etish,
o'tkazish va ushbu fan o'quvchilar o'quv faoliyatigagi samaradorligi haqida so'z yuritiladi.*

***Kalit so'zlar:** Texnologiya, bilim, ko'nikma, ekskursiya.*

Mamlakatimizda ta'limga bo'lgan munosabatlarni yangi davrga olib chiqish masalasi keng muhokamada bo'lmoqda. "Ta'lim to'g'risidagi qonun" ning qabul qilinishi, "O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida" gi president farmoni, Beshta muhim tashabbusning ilgari surilishi va joriy etilishi orqali yoshlarning bilim olishi va kasbiy shakllanishiga bo'lgan e'tibor yana bir marotaba davlat ahamiyatidagi masala darajasiga ko'tarildi. Bu muhim xujjatlarda yoshlarimizga chuqur bilimlar berish bilan birga kasb-xunarga o'rgatishning yo'l-yo'riqlari ko'rsatib berildi. Ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yoshlarni vatanparvar, zamonaviy bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirgan hamda jamiyatda o'z munosib o'rnini egallashga qodir bo'lgan – komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishdir. Bugungi kunda umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya ta'limi fanlarini o'qitishdan ko'zda tutilgan asosiy maqsad – hozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitlarini hisobga olgan holda har bir jamiyat a'zosining mehnat foyiati va kundalik hayoti uchun zarur bo'lgan texnologik bilim, ko'nikma va malakalarni berish, shuningdek, o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatini umumlashtirib borib, texnologik bilimlarni olishga intilish, o'quvchilarda izchil mantiqiy fikrlashni shakllantirib borish natijasida ularning aql – zakovatiga, tabiat va jamiyat muommolarni hal etishning maqbul yo'llarini topa olishlariga ko'maklashishdan iborat.

Hozirgi sanoatlashgan davrda, texnika va texnologiyalarning takomillashib borishida texnologiya fanining o'ni beqiyos ekanligidan o'quvchilarni xabardor qilish hamda ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, fan o'qituvchilarining pedagogik mahoratini, ijodiy izlanishlari va mehnatlarini ro'yobga chiqarish maqsadida texnologiya fani o'qitib kelinmoqda. Texnologiya fanni o'tkazishdan maqsad – dars va darsdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarni ta'lim tarbiyadagi ahamiyati, o'quvchilarni mazkur fanga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, bilim



samaradorligini ko‘tarish, hozirgi zamon fan va texnikasi yutuqlari bilan doimo tanishtirib borish, o‘rganishga bo‘lgan intilishlarini o‘stirish, o‘qituvchi va o‘quvchining ijodiy hamkorligini targ‘ib etish, fan bo‘yicha o‘quv metodik ishlarni jonlantirish, o‘qituvchilar ijodiy faoliyatlarini kuchaytirish, izlanuvchan, ijodkor o‘qituvchilarni aniqlash, ularning tajribalarini o‘rganish va targ‘ibot qilish, ta‘lim jarayonida qo‘llanilayotgan ilg‘or uslublarini takomillashtirishdan iboratdir.

Texnologiya fanni ta‘lim muassasalaridagi o‘quv tarbiya jarayonining zamonaviy talablar darajasida bo‘lishini ta‘minlash, fan o‘qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish, ularning ijodiy izlanishlari va mehnatlarini ro‘yobga chiqarish omili hamdir. Texnologiya fanni davomida maktablarning pedagogik jamoasi faolligi, mahoratli kadrlar bilan ta‘minlanganligi, texnologiya fani xonasining zarur ko‘rgazmali – didaktik materiallar bilan jihozlanishi, ota – onalar bilan maktabning hamkorligini jonlantirish, ularni fandagi yangiliklar, ta‘lim tizimidagi o‘zgarishlar, o‘quvchilarning o‘zlashtirish va bilim samaradorligi ko‘rsatkichlari bilan tanishtirish kabilarga qaratilgan qator ishlar amalga oshiriladi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish maqsadida oliy o‘quv yurtlari, akademik litseylar va texnikumlarga ekskursiyalar uyushtirish, shahar, viloyatlardagi oliy o‘quv yurtlari professor, olimlari bilan o‘quvchilar uchrashuvlarini tashkil etish ishlari rejalashtiriladi.

Umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida o‘qituvchilarni ilmiy – metodik jihatdan qo‘llab – quvvatlash, zamonaviy axborot – kommunikatsiya vositalarini qo‘llash hamda ilg‘or pedagogik texnologiyalarni egallashda texnologiya fani o‘qituvchilariga ko‘maklashish, mashg‘ulotlarda bilim, ko‘nikma va mustaqil faoliyat malakalarini shakllantirish maqsadida tashkil etilgan.

Texnologiya fan o‘quvchilar bilan sinfdan tashqari vaqtda ularning olgan bilim, ko‘nikma va malakalarini mustahkamlash, fanga bo‘lgan qiziqishlarini oshirish maqsadida, sinflar va maktablararo “O‘yla izla top”, “Texnologiya fanlar ichra shox – uning sirlaridan bo‘lingiz ogoh” va “Zakovat” kabi qiziqarli mavzularda festivallar, fan bilimdonlari bellashuvi va bahs – munozaralar o‘tkaziladi. Texnologiya faniga bag‘ishlangan tadbirlarda o‘qituvchilar jamoasini yoshlarga bilim berishdagi mehnatlari, ulardagi ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish borasida qilgan ishlarini qadrlash va baholash maqsadida oylik davomida faol qatnashgan fan o‘qituvchilari rag‘batlantiriladi. Maktabdagi texnologiya faniga tegishli uslubiy birlashmaning yillik ish rejasida uchun mazkur fan yo‘nalishi bo‘yicha o‘tkaziladigan tadbirlar belgilanadi. Mazkur tadbirlar maktabning yillik ish



rejasiga kiritilib, pedagogik kengash, uslubiy kengash va uslubiy birlashma yig'ilishlarida tasdiqlanadi hamda ijrosi muhokama qilinadi.

“Ochiq darslar o'qituvchilar sinflar kesimida aniq belgilangan mavzular bo'yicha mashg'ulotlarni olib boradilar. O'qituvchilarning ismi shariflari ko'rsatilib, belgilangan ochiq darslar jadvali avvaldan tayyorlanadi. Ochiq darslar jadvali asosida mashg'ulotlarning o'tkazilishida ota – onalar, o'qituvchilar, metodistlarning darslarni faol kuzatishi va tahlil qilishi maqsadga muvofiq. “Sinfдан tashqari mashg'ulotlar”ni o'tkaziladigan tadbirlar, ularning mavzulari, o'tkazilish vaqti, tashkil etishga mas'ullar oldindan belgilanib, tuzilgan jadvalni e'lonlar doskasiga ilinadi.

Tadbirlarning tashkil etilishi va o'tkazilishiga o'quvchilar, maktab jamoasi, ota-onalar, mahalla ahli jalb etiladi. “Texnologiya fan bo'yicha olib borilgan ishlarni maktab metod birlashmalarida tahlil qilish va qilingan ishlar yuzasidan hisobotlar tayyorlash”. Bunda amalga oshirilgan ishlarning hisobotlari tayyorlanadi va kelgusidagi vazifalar belgilab olinadi. O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalari aniqlanib, tahlil qilinadi va natijalar metodbirlashmada muhokama etiladi. O'tkaziladigan tadbirlar, ochiq darslar va olib borilgan sinfdan tashqari ishlarga ota-onalar ham jalb qilinib bayramona ruhda o'tkaziladi. Unda muzkur jarayonda faol ishtirok etgan o'quvchilar, o'qituvchilar, sinflarning reytingi chiqariladi va natijalariga ko'ra ular rag'batlantiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kasb ta'limi uslubiyoti. Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
2. Mehnat ta'limi metodikasi. Magdiev O.Boltaboev S.A., O. Avazboev, V.N. Sattorov. - Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b.
3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S, Sattorov V.N., Davlatov. K. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent. Sharq, 2014. 340 b.
4. Keldiyorova, G. S., Qurbonova, N. N., Fatxullaxodjaev, M. Z., & Rixsiyeva, L. A. (2022). Didactic Functions and types of Role-Playing Games that Contribute to the Development of Communicative Foreign Language Speech Skills. *Specialusis Ugdyms*, 1(43), 10577-10582.
5. Saydiyevna, K. G. (2023). THE USE OF ALLUSIVE UNITS IN POETRY. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(4), 1132-1136.
6. Норбоев, Ф. (2023). KREATIVLIK VA INNOVATSIYA BORASIDA ZAMONAVIY NAZARIYALAR. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 3(8).



7. Мухитдинова, М., & Эшмаматова, М. (2021). Мировая Культура, Неповторимая Литература В Памяти Великого Поэта Мухаммада Аминхужа Мукимий. *Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture*, 2(4), 71-73.
8. Сабирова, Н. Э. (2021). ИЗ ИСТОРИИ ИЗУЧЕНИЯ ИСКУССТВА ХАЛФА ХОРЕЗМА. In *АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ТЮРКОЛОГИИ: РОССИЯ И ТЮРКО-МУСУЛЬМАНСКИЙ МИР* (pp. 387-390).
9. Otajonova, M. (2020). The semantic functions of myth in an artistic context. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(11), 225-229.

